

## SHO'RADOSHlar OILASI O'SIMLIKLARINING AMALIY AHAMIYATI VA KAMYOB TURLARINI O'RGANISH

A.X.Mammadiyev

DTPI o‘qituvchisi

Meliqulov Anvar

DTPI Biologiya ta’lim yo’nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530381>

*Annotatsiya.* Maqolada sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklarning botanik tayfsifi, bioekologik xususiyatlari hamda geografik tarqalishi haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so‘zlar:* Sho'radoshlar oilasi, YUNESKO, Chenopodiaceae, landshaft.

### STUDY OF PRACTICAL IMPORTANCE AND RARE SPECIES OF PLANTS OF THE FAMILY OF SHURADOSH

*Abstract.* The article provides information on the botanical description, bioecological characteristics, and geographical distribution of plants belonging to the family of sorghums.

**Key words:** Chenopodiaceae family, UNESCO, Chenopodiaceae, landscape.

### ИЗУЧЕНИЕ ПРАКТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ И РЕДКИХ ВИДОВ РАСТЕНИЙ СЕМЕЙСТВА ШУРАДОШ.

**Аннотация** В статье приведены сведения о ботаническом описании, биоэкологической характеристике и географическом распространении растений семейства сорго.

**Ключевые слова:** семейство Chenopodiaceae, ЮНЕСКО, Chenopodiaceae, ландшафт.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar biologiya fanini o’qitish jarayoniga xalqaro tajribalarni samarali tatbiq etish Ozbekiston Respublikasi 1995-yil «Biologik xilma-xillik to‘g‘risida»gi konvensiyaga qo‘silib xalqaro hamjamiyat oldida o‘zining milliy biologik resurslarini muhofaza qilish ushun javobgarlikni elon qildi. O’zbekiston mustaqillikga erishgach tabiatni muhofaza qilish bo‘yisha xalqaro tashkilotlarga azo bo‘ldi. Mamlakatimiz tabiat muhofazasida BMTning YUNESKO (talim, fan va madaniyat), FAO (oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi qo‘mita)lari bilan doimiy ravishda aloqada bo‘lib ish olib bormoqda. Ozbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqida ekologiyani muhofaza qilish va atrof –

muhitni asrab – avaylash ayniqsa, hozirgi anomal tabiiy o‘zgarishlar sharoitida Ming yillik deklarasiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirdi.

O‘zbekiston tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi, Milliy boyligimizning ajralmas qismidir. Bu boylik bir necha ming yillik evolyusiya davomida yuzaga kelgan va ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan ulkan merosdir.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyotidan foydalanib, undan ta’lim-tarbiya yo’naliشida keng qo’lanilsa, o’sha mamlakatning zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab beradi. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihatni uning barcha sohalarida globallashuvning ko’zga tashlanayotganligidir. Keyingi yillarda biologiya fanining roli benihoya ortib bormoqda. Bu tushunarli, albatta. Hozirgi kunda Oziq-ovqat muammosini hal etish, tabiatni muhofaza qilish, odamdagи nasldan-naslga o‘tadigan kasalliklarni o‘rganish, inson salomatligini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish, koinotni zabit etish, tirik mavjudotlarniig tuzilishi va funksiyasidan texnikaga andaza olish va boshqa shu singari masalalar biologiya fanining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘pchilikga ayon.

Organizmlar hayotining fundamental fenomoni bo’lgan irsiyat va o‘zgaruvchanlikning qisqa davr ichida hayratda qoldiradigan darajada sodda , ammo chuqur mantiqi hal bo’lishi, genetik axborot bilan uning fenotipik ifodasi, ya’ni organizmning barcha belgilari yig’indisi orasidagi eng qorong’i va chigal muammolarni yechish biologik fanlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanardi. XX asrning ikkinchi yarmida o’z tadqiqotlariga fizika, kimyo, matematika fan metodlarini joriy etish tufayli genetika biologyaning tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sertarmoq sohasiga aylanadi. Bu esa barcha tirik organizmlarga xos irsiyat va o‘zgaruvchanlik haqidagi bilimlarni kengayishiga olib keldi. Farzandlarimizni sog’lom tug’ilishi ko’p jihatdan keng aholi, ayniqsa yoshlar orasida genetik bilimlarni tarqatish,genetik savodxonlikni oshirishi bilan uzviy bog‘liq.

Kurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev Oliy majlisga murojatnomasida ta’lim tizimni va fan taraqqiyotining yuqori bosqichlarga olib chiqish borasida quyidagi fikrlarni bayon etdilar “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni ma qsad qilib qo’yan ekanmiz, bunga faqat islohot, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi shijoat bilan maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. SHuning uchun ham bog’chadan boshlab oliy o’quv yurtigacha — ta’limning barcha bo’g’inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo’q joyda qolog’lik, jaholat va albatta, to’g’ri yo’ldan adashish bo’ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot-texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbatdosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko’tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb nom berishni taklif etaman. Maktab o’quv dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o’quv yuklamalari va fanlarni qayta ko’rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.

Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo’nalishlami aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini biryola taraqqiy ettira olmaydi. SHuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo’nalishini rivojlantirish tarafどrimiz.

Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo’nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag’larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko’rib chiqish kerak. Prezidentimizning ushbu murojati barcha pedagoglarni ruhlantirdi va barcha o’qitishning yuqori samara berasidigan, ta’lim tizimini mukammallashtiradigan texnologiyalar ustida tinmay ishlaydilar.

O’zbekiston florasi o’zining rang-barangligi bilan ajralib turadi.Unda barcha tik mintaqalar va ularga xos bo’lgan o’simliklari mavjud. Hozirda respublikamizda jami turlar soni 4500 ga yaqin bo’lib, 15000 dan ziyod turkum va 785 tadan ortiq oilaga birlashtirilgan. Gulli yoki yuksak o’simliklar ham floramizda keng tarqalgan. Ularning turlar soni 250 mingdan ortiqroqni tashkil etadi. Bu turlar 13000 turkumga va 533 ta oilaga kiritilgan. Botanika bog’laridagi o’simlik turlarini qo’shib hisoblaganda, O’zbekiston florasidagi turlar soni salkam 9000 turni tashkil etadi.

O’zbekistonning o’simliklar dunyosi turli-tuman bo’lib, cho’l mintaqasidan tortib, tog’ cho’qqilarigacha bo’lgan hududlarda tarqalgan. Ulardan ko’pchiligi faqat yovvoyi holda o’sib ilmiy jihatdan yetarli darajada o’rganilmagan. Bular orasida shunday o’simliklar borki, ulardan xalq xo’jaligining turli tarmoqlarida foydalanish mumkin (masalan, tibbiyotda, asalarichilikda, oshlovchi va bo’yoq moddalar olishda, manzarali o’siml iklar sifatida va

boshqa sohalarda). Ana shunday foydali o'simliklar oilallaridan biri Sho'radoshlar oilasi — Chenopodiaceae.



#### 4-rasm. Oddiy laviagi (*B. vulgaris*)

Sho'radoshlar orasida muhim oziq-ovqat, yem-xashak (cho'l, yarim cho'1), dorivor va begona o'tlar bor. Oilaning 110 turkumiga mansub 1500 dan ko'proq turlari mavjud bo'lib, ular O'rtayer dengizbo`yi, G`arbiy, O'rta va Markaziy Osiyoda, Shimoliy Amerikaning preriyalari, Janubiy Amerikaning pampaslarida va Avstraliyaning sahrolarida keng tarqalgan. O'zbekistonda 43 turkumi va 180 turi yovvoyi holda o'sadi. Sho'radoshlar kichik oilasining Lavlagi, ismaloq, olabuta, tcrcskcn, ebalak, karnforosma, kumarjik, qumtariq va izen kabi turkumlarining turlari yovvoyi holda respublikamizda ancha keng tarqalgan.

#### REFERENCES

1. S.M.Mustafaev. Botanika. "O'zbekiston" 2002 y.
2. V.A.Burgin.F.X.Jongurazov Saidov J.K.va boshqalar. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi.T,«O'qituvchi» 1972 y
3. I.Xamdamov., I.Shukrullayev., YE.Tarasova. va boshqalar. Botanika asoslari.T., «Mehnat», 1990.
4. Xolida Mirfayoz qizi Maxkamova. Botanika.T. «O'qituvchi», 1995 y.
5. Ikramov M. I, Marmuradov X.N, Yo'ldashev A.S. Botanika, T. "O'zbekiston" 2002 y.
6. Xudayqulov S.M, Nazarenko L.I. o'simliklar sistematikasidan amaliY mashqulot «Toshkent» 1984 y.

7. Jukovskiy T.M. Botanika. «Moskva» 1982 Y. 667 bet.
8. Pratov O.P. O'zbekiston yuksak o'simliklar, oilari, zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari. «Toshkent» 1995 y. 396 bet.
9. Taxtabjeam A.L. Sistematika magnioletov. 1987 Y. 439 bet.
10. O'ktampratov O, Jumaev K. Yuksak o'simliklar sistematikasi. «Toshkent» 2003 y. 144 bet.